

**AHOLI TIBBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNING SALOMATLIK
KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7793147>

Nilufar Niyozova

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Akbar Sobirov

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son davolash fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholi tibbiy madaniyatini yuksaltirishning dolzarbligi, ijtimoiy ongda namoyon bo'lish, bunda tibbiyot xodimlarining alohida o'рни hamda salomatlik ko'rsatkichlariga samarali ta'siri ko'rsatib o'tilgan.*

Annotation: *This article shows the relevance of improving the medical culture of the population, its manifestation in the public mind, the special role of medical workers and their effective impact on health indicators.*

Аннотация: *В данной статье показана актуальность повышения медицинской культуры населения, ее проявление в общественном сознании, особая роль медицинских работников и их эффективное влияние на показатели здоровья.*

Tayanch tushunchalar: *aholi, tibbiy madaniyat, salomatlik, ijtimoiy ong, dolzarblik, tibbiyot xodimlari, ko'rsatkich, o'sish darajalari, islohot, samara.*

Key words: *population, medical culture, health, social awareness, relevance, health workers, rate, growth rates, reform, effectiveness.*

Ключевые слова: *население, медицинская культура, здоровье, общественное сознание, актуальность, медицинские работники, показание, темпы роста, реформирование, эффективность.*

Jamiyatning taraqqiyotida inson salomatligini saqlash boshqa omillar qatori tibbiy madaniyatni yuksaltirish bilan bog'liq bo'lgan. Tibbiy madaniyat ijtimoiy hayot tarzida o'z salomatligiga e'tibori uchun muhim mexanizm bo'lib, har qanday tarixiy davrda barqaror umr kechirish muvozzantini ta'minlab bergan. Shu nuqtai nazardan aholi tibbiy madaniyatini rivojlantirishning dolzarbligi:

Birinchidan, hozirgi paytda xalqimiz tibbiy madaniyati rivojlanishida muhim o'zgarishlar amalga oshmoqda. Umuman tibbiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bois uni salomatlik ko'rsatkichlariga qay darajada ta'sir qilayotganligi nuqtai nazardan o'rganishga bo'lgan ehtiyoj sezilmoqda.

Ikkinchidan, inson salomatligini saqlash tibbiy madaniyat darajasiga bevosita bog'liq bo'lganligidan, uni rivojlantirishning dolzarb muammolarini o'rganish, tahlil qilish va yechimini topish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Uchinchidan, globallashuv davrida inson salomatligiga xavf tug'diruvchi omillar ko'paymoqda. Tibbiyot qanchalik rivojlanmasin, inson o'z salomatligiga e'tiborli bo'lmas ekan, kasallikning kelib chiqishi va og'ir oqibatlariga olib kelishi ehtimoldan yiroq emas. Axborot texnologiyalari takomillashib borishi, tarmoqlarda turli ma'lumotlarning ko'payishi ularning to'la ishonarli, aniq faktlarga asoslanganligini hech kim kafolatlay olmaydi. Lekin aholining ana shunday ma'lumotlarga tayanib qaror qabul qilishi, bugungi kunda kasallikning og'ir darajalarida tibbiy birlamchi bo'g'inga murojaat qilayotganligini kuzatish mumkin.

Aslida boshqa madaniyat shakllari singari tibbiy madaniyat ham insoniyatning eng qadimgi taraqqiyot bosqichlariga ham xos bo'lib, ijtimoiy makonda ularning madaniy hayot tarzi va xatti-harakatlari mezoniga aylangan, bir - biriga yordam ko'rsatish va birga mehnat qilishini ta'minlab bergan. Shuning uchun insonning o'z salomatligiga e'tibori hamohangligida "Tibbiy madaniyatning birlamchi belgisi shifokorga nisbatan munosabatdan boshlanadi" [1]. Manbalarda "tibbiy madaniyat" tushunchasining keng qo'llanilishida turli xil fikrlar keltiriladi. Ayrimlarida "Tibbiy madaniyat nisbatan yangi tushuncha bo'lib, u tibbiyot fanining zamonaviy rivojlanishi va bemorga ham terapevtik, ham profilaktik ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi bilan bog'liq holda ayniqsa muhimdir. ...birinchi navbatda, profilaktik chorani ta'kidlash" [2] lozimligi bildirilsa, boshqasida "Tibbiy madaniyat - bu inson borlig'ini doimo yangilanib borayotgan olam bilan birlikda doimiy shakllanish sifatida tushunishga asoslangan faoliyat, unda inson dunyosi, uning eng oliy qadriyatlari - hayoti, salomatligi, birinchi navbatda, o'zi tomonidan yaratilgan... tibbiyotning muhim yordami"ni e'tirof etadi [3]. "Tibbiy madaniyat" tushunchasini tahlil qilishda inson, uning atrof - muhitga ta'siri, tibbiy yordam tushunchalari bilan chambarchas bog'langanligini ko'ramiz. Inson yashashi davomidagi oliy qadriyatlari deganda esa, uning ijtimoiy jihatdan o'z salomatligiga oqilona munosabatda bo'lishni talab etadi. Bu tibbiy madaniyat tarzda namoyon bo'lib, "inson-salomatlik-tibbiyot" mexanizmining dialektik yangi qirralarini ochadi. Biz maqolamiz kontekstida tibbiy madaniyatga berilgan ayrim ta'riflarni tahlil qilgan holda o'z ta'rifimizni berishni joiz deb topdik. Bizningcha, *tibbiy madaniyat bu – umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, insonning o'z salomatligiga e'tibori, sog'lig'iga doir bilimlarni takomillashtiri hamda sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatidir.*

Fikrimizcha tibbiy madaniyatni rivojlantirishning muhim mezonlarida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

Individual yondashuv. Aynan insoniyatning o'z salomatligiga e'tibori bugungi kunda qanday ko'rsatkichlarga ega degan savol davr talab muammo bo'lmoqda. Aholi tibbiy madaniyatini rivojlantirish, uning samaradorligi haqida fikr yuritar ekanmiz, individual yondashuvda o'ziga xos ma'naviy va madaniy ko'rinishda aks etadi. Tibbiy madaniyatni rivojlantirishdagi zamonaviy tibbiy va falsafiy konsepsiyalar insoniyatning o'z tana mustahkamligiga stixiyali, instinktiv munosabati emas, balki

ratsional, jismoniy va psixologik ta'siri, sog'lom turmush tarzi yaxlitligini kafolatlab beradigan muhim ijtimoiy zarurat ekanligini isbotlamoqda. Dastavval, bu tizim alohidalikdan umumiylikka tomon yo'nalib, kundalik hayotda sog'lom tabiiy va ijtimoiy muhit yaratishning individual ekzistinsialistik mexanizmini yaratadi. Bu tom ma'nodagi sog'lom turmush tarzi falsafasini vujudga keltirgan ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar birligidir.

Insonning kelib chiqishi, hozirga qadar faoliyati davomiyligida uning tibbiy madaniyatini rivojlantirish ham tibbiy, ham ijtimoiy-falsafiy muammo darajasida kengayib ketmoqda. Aftidan salomatligini saqlash, tibbiy madaniyatni yuksaltirishga doir muammolarining ko'p qismi yechilgan masaladek ko'rinadi. Ammo inson salomatligining buzilishiga ta'sir etayotgan omillar orasida eng asosiysi insonning o'zi ekanligi, uni bartaraf etuvchi ham insonning o'zi bo'lishini anglashi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.


Ommaviy axborot vositalari. So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari faoliyatida atrof-muhit muhofazasi, salomatlik, kasalliklar profilaktikasi haqida ko'plab chiqishlar bo'lmoqda. Jumladan, (O'zbekiston ommaviy axborot vositalari misolida) teleradioda, "Sog'lom turmush", "Oydin hayot", "Badantarbiya" kabi ko'rsatuv va eshittirishlar, "Toshkent oqshomi" "Qishloq hayoti", "Sanitariya madaniyati" gazetalari, "Sog'lom avlod", "Ekologiya xabarnomasi-Ekologicheskiy vestnik", "O'zbekiston tibbiyot" jurnallari va h.k. Qayd etilgan ommaviy axborot vositalari chiqishlari mazmunida sog'lom turmush tarzi masalalari ko'tarilsada, biroq tibbiy madaniyatni rivojlantirishni yoritish darajasini yanada ko'paytirish zarur nazarimizda. Vaholanki, boshqa manbalarga qaraganda aholi salomatlik, madaniyatni yuksaltirish haqidagi ma'lumotlarni ko'proq "to'rtinchi hokimiyat" tarqatayotgan ma'lumotlar va ijtimoiy tarmoqlardan olishadi.

Mahalla - O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida asrlar davomida shakllangan, atrof-muhit obodonchiligi, sog'lom turmush tarzi falsafasini shakllantirish va tibbiy madaniyatni o'ziga xos tarzda rivojlantirishda keng jamoatchilik faoliyatini namoyon etuvchi tuzilma bo'lib, so'nggi paytlarda bu borada salmoqli tashkiliy ishlarni amalga oshirmoqda. "Eng obod mahalla" ko'rik tanlovi, mahallalararo sport musobaqalari, umumxalq hasharida faol ishtirok etishi bu tuzilmada sog'lom muhitning vujudga kelishiga xizmat qiladi. Amalga tatbiq etayotgan ishlar mahalla aholisining dunyoqarashi, aqliy salohiyati, qiziqishlari, hayotiy tajribalari bilan bog'langan an'analari, udumlari, urf-odatlarini, kundalik odatlari, kasalliklar profilaktikasiga oid axloqiy tushuncha va me'yorlarining yuksak namunalari bilan ifodalanadi. Mahalla kundalik turmushda ekologik, gigienik, tibbiy madaniyat shakllanishidagi dastlabki mexazmlardan biridir. Zero, mahalla "Shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarni keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy

madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi"[4].

Tibbiy - uslubiy yondashuv. Tibbiy madaniyatni rivojlanib borishi jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, odamlarga munosib turmush sharoitini yaratib berish bilan bog'liq maqsadlarni amalga oshirish ishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, tibbiy - uslubiy yondashuvda yangi usul va vositalarning takomillashuvi inson salomatligini saqlashning gumanistik mazmunini belgilaydi. "Og'zaki targ'ibot" – usuli tibbiy-uslubiy yondashuvning muhim bir ko'rinishi bo'lib, undan keng foydalanish mumkin. Bu targ'ibotning "ustunligi shundaki, omma bilan to'g'ridan-to'g'ri jonli munosabatda bo'linadi. Tashviqotchi nutqining emotsional tomoni so'zning asosiy ma'nosini boyitadi hamda chuqurlashtiradi, ommaning aql va sezgi a'zolariga tez ta'sir etishga imkon beradi" [5]. Bu borada davra suhbatlari ham o'ziga xos samaradorlikka ega.

2022-yil iyul oyidan 2023-yil fevral oyiga qadar Toshkent viloyati Chirchiq shahrida "Istiqlol", "Semurg", "Chinor" va "Humo" mahallalari aholisi o'rtasida targ'ibot ishlari olib borildi. Jami 715 nafar aholiga davra suhbatlari tashkil etildi va kerakli ma'lumotlar berildi. Davra suhbatlarida qatnashgan umumiy aholining 40%ni 30 yoshgacha bo'lganlar, 60 %ni esa 30 yoshdan yuqori bo'lganlar tashkil etdi. Erkaklar 43%, ayollar 57%.



Bugungi Yangi O'zbekistonda salomatlikni saqlashga madaniy yondashuv tarzida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Aholimizni o'z salomatligiga e'tiborli bo'lishga da'vat etish davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishini belgiladi. Xulosa o'rni aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotida tibbiy madaniyatni rivojlantirishning muhim xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1) odamlarning o'z salomatligini saqlash, muntazam tibbiy ko'rikdan o'tib turish va zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan foydalanishdagi faolligi va mas'uliyati, tibbiy madaniyat rivojlanishiga, bu boradagi muammolarni anglash darajasiga bog'liqdir;

- 2) Tibbiy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy jihatlarini ta'minlash shunga doir qonuniy asoslarni yanada mustahkamlashni taqozo etadi;
- 3) aholining tibbiy ongini, madaniyatini shakllantirishda jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlar, mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirish uning samaradorligini ta'minlaydi;
- 4) tibbiy madaniyatni odamlar hayot tarziga singdirishda davlat dasturlarini, qonunlarini har bir hudud xususiyatlariga differensial yondashib loyihalarini ishlab chiqarish o'zining samarasini beradi [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sog'liqni saqlash vazirligi: Tibbiy madaniyat shifokorga nisbatan munosabatdan boshlanadi <https://xs.uz/uz/post/>
2. Медицинская культура это... <https://www.google.com/search?q>
3. Что такое медицинская культура населения? //Аргументы и факты Рязань 25.09.2012
4. Қаранг: Нурмуродов А.Р., Раимжонова У.Н. Ҳуқуқий демократик давлат қуришда маҳалла ва фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органларининг ўрни. Фуқаролик жамиятида демократик кадриятлар: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. - Т.: Тошкент Давлат Техника университети, 2011. 232-бет
5. Инсон ва табиат муносабати. Ж //Гулистон, 2003. №5. 21-бет
6. Niyozova N.Sh. Healthy way of life and hygienic culture. J//The Way of science. International scientific journal №5 (27), 2016. Pg 50-53